


Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-iyun)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 4765,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 123,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 57,5 % ni tashkil etdi.



B–Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**–Ishlab chiqaradigan sanoat **D**–Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash, **E**–Suv bilan taʼminlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bugʻ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 7,5 % ga, ishlab chiqaradigan (qaytaishlash) sanoatning 30,1 % ga o'sishi kuzatildi.


Shuningdek, togʻ-kon sanoatida 42,0 % ga hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilish sanoatida 5,0 % ga pasayishi kuzatildi.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 24,2 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoat




2021-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2741,9 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 57,5 % ini tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining hajmi 129,8 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 4,7 %), o'rta-yuqori texnologiyali 100,8 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 3,4 %), o'rta-quyi texnologiyali 517,0 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 18,9 %), quyi texnologiyali 1994,2 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 72,7 %) ni tashkil etdi.


Yuqori texnologiyali




O'rta-yuqori texnologiyali



O'rta-quyi texnologiyali



quyi texnologiyali



**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi
mahsulotlarning o'sish sur'ati**

2021- yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 352,7 ming l. 100% spirti (2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 54,1 % ga kamaygan), 480,5 tonna bint (8,0 %) kamaygan bo'lsa, 27,8 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (19,8 %) ishlab chiqarilib kamayishi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-iyun	2021- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	34,6	27,8	-6,9
Aroq, ming l. 100% spirt	768,4	352,7	-415,7
Sellyuloza, tonna 90%	905,3	678,5	-226,8
Paxta tolasi, ming tonna	4,9	11,0	6,1
Paxta chigiti, ming tonna	8,4	17,6	9,2
Paxta tiviti (lint), ming tonna	0,4	1,1	0,7
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa, ming tonna	17,8	11,0	-6,7
Etilen polimer qoplar, ming tonna	7,6	8,8	1,2
Issiqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln.kVt/s	7383,6	8070,3	686,7
Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming Gkal	55,5	56,6	1,1

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish (yirik korxonalar bo'yicha)



Yumshoq bug'doy
va spelta uni

27,8
ming tonna



Aroq

352,7
ming l. 100% spirt




Sellyuloza

678,5
tonna 90%



Paxta chigiti

17,6
ming tonna



Paxta tiviti (lint)

1,1
ming tonna



Paxta tolasi

11,0
ming tonna



Etilen polimerli qoplar

8,8
ming tonna



Issiqlik elektr
markazlari (IEM)
ishlab chiqargan
elektr energiyasi

8070,3
mln.kVt/s



Bug‘ va issiq suv
(issiqlik energiyasi)

56,6
ming Gkal




Yirik shoxli
qoramollar uchun
tayyor ozuqa

11,0
ming tonna

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 2021- yilning yanvar-iyun oylarida

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1966,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (41,3 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 117,5 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-iyun	2021- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	7383,6	8070,3	686,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	55,5	56,6	1,1

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 33,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.



2021- yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 5,0 % ga pasayishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1753,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 17,7 % ga o'sishi kuzatildi, jami sanoatdagi ulushi esa 36,8 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari 2,8 % ni (2020- yil yanvar-iyun oyida 3,4 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib 32,9 % ni, shuningdek, Guliston shahri 18,2 % ni hamda Mirzaobod tumani 11,5 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishning o'sish sur'atida viloyat (117,7 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Sirdaryo tumanida (136,9 %) va Mirzaobod tumanida (132,9 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2021- yilning yanvar-iyun oylarida)**

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
Sirdaryo viloyati	1753,2	100,0	117,7
Guliston sh.	318,9	18,2	103,0
Shirin sh.	13,8	0,8	98,1
Yangiyer sh.	125,8	7,2	111,9
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	69,9	4,0	100,7
Guliston	105,0	6,0	106,9
Mirzaobod	201,0	11,5	131,6
Oqoltin	111,5	6,4	112,9
Sardoba	51,9	3,0	106,1
Sayxunobod	103,4	5,9	114,6
Sirdaryo	576,9	32,9	136,9
Xovos	75,1	4,3	101,9

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 879,0 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.




Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 18,4 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Sirdaryotumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 55,5%), Guliston shahri (28,7 %), Sayxunobod tumani (37,6 %) hamda Sardoba tumanlarida (34,9 %) kuzatildi.

**Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi va indeksi**

	2021-yil yanvar-iyun <i>mlrd. so'm</i>	Fizik hajm indeksi, <i>% da</i>
Sirdaryo viloyati	4765,6	123,4
Guliston sh.	491,7	101,1
Shirin sh.	1834,7	110,5
Yangiyer sh.	308,5	107,0
tumanlar:		
Boyovut	204,1	109,2
Guliston	140,8	128,2
Mirzaobod	226,8	102,8
Oqoltin	192,6	121,3
Sardoba	128,4	123,9
Sayxunobod	248,0	106,2
Sirdaryo	829,2	105,3
Xovos	160,8	118,5

Viloyatda ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, % da




Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Shirin shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 38,5 %), Sirdaryo tumani (17,4 %), Guliston shahri (10,3 %), Yangiyer shahri (6,5 %), hamda Sayxunobod tumani (5,2 %), Mirzaobod tumani (4,8 %), va Boyovut (4,3 %) tumanlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Xovos tumani (3,4 %) Guliston tumani (3,0 %) hamda Sardoba tumaniga (2,7 %) to'g'ri kelmoqda.

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va
iste'mol mollari ishlab chiqarish**
(2021- yil yanvar-iyun oylari, ming so'mda)

	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	Iste'mol mollari
Sirdaryo viloyati	5511,9	2027,7
Guliston sh.	5345,4	3466,5
Shirin sh.	96907,4	730,1
Yangiyer sh.	6944,6	2834,6
tumanlar:		
Boyovut	1545,3	529,5
Guliston	1888,2	1407,4
Mirzaobod	3003,2	2662,1
Oqoltin	3625,3	2098,9
Sardoba	1910,2	772,1
Sayxunobod	3148,2	1312,1
Sirdaryo	6353,9	4420,5
Xovos	1649,7	769,9

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste'mol mollarining o'sishi (2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da)




**Viloyatdagi hududiy sanoat korxonalarini tomonidan ishlab
chiqarilgan mahsulotlar hajmi va ulushi**
(2021- yil yanvar-iyun oylarida)

	Mahsulot hajmi (mlrd. so'm)	Jamiga nisbatanulushi, % da
Sirdaryo viloyati	1715,1	36,0
Guliston sh.	245,9	50,0
Shirin sh.	13,6	0,7
Yangiyer sh.	163,7	53,1
tumanlar:		
Boyovut	185,9	91,0
Guliston	60,3	42,8
Mirzaobod	37,9	16,7
Oqoltin	95,1	49,4
Sardoba	128,4	100,0
Sayxunobod	207,4	83,6
Sirdaryo	444,8	53,6
Xovos	132,0	82,1

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1947,1 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 40,9 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Sardoba tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (100,0 %), Mirzaobod tumani (77,9 %), Boyovut tumani tumani (91,7 %), Sayxunobod tumani (84,0 %), Xovos tumani (86,2 %) Guliston shahri (66,6 %) hamda Yangiyer shahrida (56,5 %) kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Sirdaryo tumani (49,6 %), Guliston tumani (47,8 %), Oqoltin tumani (53,3 %), hamda Shirin shahrida (0,7 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2021-yil 1-iyun holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 2212 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 569 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 25,7 %) Guliston shahriga, 366 tasi (16,5 %) Sirdaryo tumaniga, 191 tasi (8,6 %) Yangiyer shahriga to'g'ri kelmoqda.



2021- yil yanvar-iyun oylarida viloyatda 289 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 42,6 foizi Guliston shahriga, Boyovut tumani, Mirzaobod tumani va Sirdaryo tumaniga to'g'ri keladi.

Sanoat statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (067) 236-86-23